

SOMONIYLAR DAVLATI BOSHQARUV TIZIMI**Obilov Azizbek**

Navoiy davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Taqdim etilgan matn Islom dinining Markaziy Osiyoga yoyilishi natijasida Somoniylar davlatida shakllangan yangi boshqaruv tizimi va uning tarixiy ahamiyatini yoritadi. Maqolada Somoniylarning Abbosiylar xalifaligi bilan o'rnatgan munosabatlari, o'nta devonga asoslangan markaziy boshqaruv apparati hamda turkiy g'ulomlar va chokarlardan tashkil topgan kuchli muntazam qo'shinning tuzilishi batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur sulolaning shariat ahkomlari va milliy an'analarga tayangan holda yaratgan boshqaruv tajribasi Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Saljuqiylar kabi keyingi mustaqil turk-musulmon davlatlari uchun asosiy andoza vazifasini o'tagani dalillar bilan ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Somoniylar davlati, markazlashgan boshqaruv tizimi, devonlar, turkiy g'ulomlar, islom dinining yoyilishi.

Abstract: The presented text highlights the formation of a new administrative system in the Samanid state resulting from the spread of Islam in Central Asia and examines its historical significance. The article analyzes the relations of the Samanids with the Abbasid Caliphate, the central administrative apparatus based on ten divans, and the structure of the regular army composed of Turkic ghulams and chakars. It demonstrates how this dynasty's governance experience, built upon Sharia principles and national traditions, served as a primary model for subsequent independent Turkic-Muslim states.

Keywords: Samanid state, centralized administrative system, divans, Turkic ghulams, spread of Islam.

Аннотация: Представленный текст освещает формирование новой системы управления в государстве Саманидов в результате распространения ислама в Центральной Азии и рассматривает его историческое значение. В статье анализируются отношения Саманидов с Аббасидским халифатом, центральный административный аппарат, основанный на десяти диванах, а

также структура регулярной армии, состоявшей из тюркских гулямов и чокаров. Показано, что опыт государственного управления данной династии, опиравшийся на предписания шариата и национальные традиции, служил главным образцом для последующих независимых тюрко-мусульманских государств.

Ключевые слова: *Государство Саманидов, централизованная система управления, диваны, тюркские гулямы, распространение ислама.*

Islomning Markaziy Osiyoga yoyilishi mintaqa tarixida tub burilish yasadi. Shariat ahkomlariga asoslangan arab xalifaligi boshqaruv tizimining mintaqaga kirib kelishi o'zbek davlatchiligining keyingi davrlardagi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. VIII-XII asrlar davomida islom ahkomlarini o'ziga singdirib borgan Markaziy Osiyodagi boshqaruv tizimi milliy davlatchilik tarixining muhim segmentlaridan biriga aylandi. Islom Markaziy Osiyodagi boshqaruv tizimining yangi shakllarda rivojlanishini boshlab berdi. Buning natijasida vujudga kelgan milliy boshqaruv tizimi tamoyillari XX asrgacha o'z kuchini saqlab qoldi.

IX asrning ikkinchi yarmi islom tarixida "zaif xalifalar asri"ning boshlanishi deb yuritiladi. Bu davrga kelib Abbosiylar xalifaligida ichki ziddiyatlarning kuchayishi, qo'zg'olonlarning ko'payishi, arablardan bo'lgan hokimlarga nisbatan xalifalar ishonchsizligining ortishi, buning oqibatida hududlarga kelib chiqishi fors va turkiylardan bo'lgan qo'mondon va voliymlarning tayinlanishi markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, shuningdek, ham g'arbiy, ham sharqiy hududlar nazoratining qo'ldan ketishiga sabab bo'ldi.

Dastlab Xurosonda Tohir ibn Husayn (776-822 yy.) boshchiligidagi tohiriylar, ulardan so'ng safforiylar o'z mustaqilligini e'lon qilgach, Movarounnahrda xalifalarga sadoqat bilan xizmat qilib kelgan Somoniylar ham vaziyatdan foydalangan holda, amalda mustaqil boshqaruvni o'rnatishga muvaffaq bo'ldi.

Somoniylar Xuroson amirlari Tohiriylardan mustaqil bo'lishga intilganlar, ammo hech qachon Abbosiylarga qarshi chiqmaganlar va Bag'doddan mustaqil

bo'lishga intilmaganlar[9:196]. Binobarin, xalifa Ma'mun Marvdan Bag'dodga ketishdan oldin unga sadoqat bildirgan Somon avlodlari Nuh ibn Asad (vaf. 842-y.) va uning ukalarini hokim etib tayinlashga buyruq beradi. 204/819-20-yilda Xuroson amiri G'asson ibn Abbod xalifaning ko'rsatmasiga binoan Nuh ibn Asadni Samarqandga, Ahmadni – Farg'onaga, Yahyoni – Shosh va Ustrushonaga, Ilyosni esa – Hirotga hokim etib tayinlaydi. Aka-ukalar rasman bir-biridan mustaqil hukmdor bo'lgan, lekin amalda ular Nuh ibn Asadga bo'ysunganlar[4:253]. U Somonxudotning to'rt nabirasining to'ng'ichi bo'lib, Somoniylar sulolasining asoschisi hisoblanadi[3:48].

Nuh ibn Asad boshqa dindagi turklarga qarshi jehod urushlari olib borgan. 225/ 839-40-yilda u Isfijob shahrini egallab, undagi tokzorlar va ekinzorlarni o'z ichiga olgan mudofaa devorini qurdiradi[4:253]. Nuh ibn Asad hukmronligi davrida Samarqand, Shosh va Farg'ona shaharlarida zarb etilgan tangalardagi yozuvlarda xalifa ismidan keyin uning ismi keltirilgan. Bu esa uning Xuroson hukmdorlari Tohiriylardan mustaqil bo'lganligi va faqatgina xalifaga bo'ysunganini anglatadi[4:254].

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asariga ko'ra, Nuh ibn Asad (819-864 yy.) vafotigacha Samarqandda yashaydi va birodari Ahmad ibn Asadni o'ziga o'rinbosar etib tayinlaydi. Ahmad ibn Asad olim va porso kishi bo'lib, o'ta xalqparvar va vijdonli bo'lgan[2:147]. Ibn al-Asir u haqda quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Ahmad haqida uning o'g'li Nasr shunday deydi: u (Ahmad ibn Asad) 30-yillik hukmronligi davrida o'zi ham, atrofidagi yaqin ayonlari ham pora olmagan. U vafot etganida uning qo'l ostidagi xizmatchilari hatto och qolib ketgan" [8:66]. Somoniy hukmdorlar orasida ham arab xalifalari Umar ibn Xattob va Umar ibn Abdulaziz kabi zohid va xalqparvar amirlar hamda davlat xizmatchilari bo'lganligini yuqorida nomlari keltirilgan muarrixlarning keltirgan ma'lumotlari ham tasdiqlaydi.

Somoniylar hukmronligi boshlanganda (IX asr boshlari) Movarounnahr alohida ma'muriy birlik edi, X asrdan boshlab Xuroson ham unga qarashli bo'lgan[4:142]. Somoniylar o'zlarining hukmronligi ostiga ikkita yirik mintaqani – Buxoro, Samarqand, Ustrushona, Farg'ona, Shosh, Isfijob, Xorazm, Kesh, Nasaf,

Chagʻoniyon, Xuttalonni oʻz ichiga oluvchi Movarounnahr va Badaxshon, Balx, Toxariston, Gurjiston, Marv, Hirot, Gʻur, Nishopur va Gurganchni oʻz ichiga olgan Xurosonni birlashtirdilar. Shuning uchun adabiyotlarda ularning mulki baʼzan “Somoniyar imperiyasi” deb nomlanadi[11:127].

Movarounnahr toʻrt viloyatdan iborat boʻlgan. Sugʻd viloyatining ikkita poytaxti boʻlib, bular Buxoro va Samarqand shaharlari edi. Shuningdek, Xorazm, Fargʻona, Chagʻoniyon va Shosh viloyatlari ham mazkur hududga kirgan. Somoniyar davlatining gʻarbiy qismi, yaʼni Xuroson hududi esa, toʻrt qismdan iborat boʻlib, birinchisining poytaxti Naysabur (Nishopur), ikkinchisidiki – Marv, uchinchisi – Hirot, toʻrtinchisi Balx shaharlari edi[12:188].

Manbalar koʻrsatadiki, oʻrta asrlarda Marv shahrining nufuzi juda yuqori boʻlgan. Abbosiy xalifalar hokimiyati ham Marvda boshlangan va ularning qora rangli bayroqlari ilk bor shu yerda koʻtarilgan. Bu yerda oʻn yil davomida xalifa Maʼmun (xalifalik yillari 813-833) hukm surgan. Shuning uchun odamlar uni Shohijon, yaʼni Shoh Jahoniy – “Podshohlar qarorgohi” deb ataganlar[4:59]. Marv – xalifalikning sharqiy qismiga hokimlik qiluvchi noibga (u Kufada turar edi) bevosita boʻysunuvchi Xuroson noibining qarorgohi edi[Oʻzbekiston SSR tarixi. II tom, 1970:191]. Shunga qaramay, Somoniyar davlati poytaxti etib Movarounnahrning eng taraqqiy etgan shaharlaridan biri boʻlgan Buxoro shahri tanlangan.

261 – 379/875 – 892-yillarda Somoniyar davlatining poytaxti Samarqand, 279 – 395/892 – 1005-yillarda esa Buxoro boʻlgan. Comoniyar qonuniy jihatdan Xuroson amirlari boʻlib, Movarounnahr va Xuroson yerlari ularga qarashli boʻlgan. Shuning uchun ularning qarorgohi Buxoro X asrda Movarounnahr va Xuroson poytaxti hisoblangan. U Movarounnahrda Xurosonga eng yaqin shahar boʻlgan. Tohiriylar Nishopurdan turib Xurosonni idora etgan boʻlsalar, Ismoil ibn Ahmad Buxoroni oʻziga qarorgoh etib tanlagan va davlatning poytaxtiga aylantirgan. Buning asosiy sababi – uning islomdan oldingi ajdodlari (El Arslon va El Tegin) Buxoroda yashaganlar va shu yerda dafn etilganlar[9:121-196]. Uning avlodlari davrida ham poytaxt Buxoro boʻlib qolavergan. Ungacha Movarounnahr

hukmdorlari Samarqandda, ba'zan Shoshda, ba'zida esa Farg'onada yashaganlar[2:159].

Somoniylar sulolasi Movarounnahrda arab bo'lmagan birinchi musulmon hukmdorlar bo'lib, yuz yildan ortiq hukmronlik qilgan. Bu davrdagi boshqaruv tizimi mohiyatini hokimiyatning otadan bolaga meros bo'lib o'tishi tamoyili tashkil qilgan. Somoniylarning Movarounnahrda islomning yoyilishida ko'rsatgan xizmatlarini ham alohida ta'kidlash joiz. Buning natijasida mazkur sulola Markaziy Osiyoda islom dini ko'rsatmalari asosidagi boshqaruv tizimining qaror topishida alohida rol o'ynadi. Uning tajribasi keyingi sulolalar boshqaruvi uchun namuna – etalon vazifasini o'tadi.

Markaziy Osiyoda IX–XII asrlarda hukm surgan Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatlari boshqaruv tizimini somoniylardan o'zlashtirgan holda o'zlarining mahalliy an'analarga sodiq qolgan holda boshqaruvga ma'lum darajada yangiliklar olib kirishgan. Buning yorqin dalili sifatida pardador, dovotdor, tashtdor, jashnigir, qutvol, salor, sarhang, sipohsolor, biruk, ag'ichi, qushchi, chovush, xaylboshi kabi rasmiy lavozimlar joriy etilganligida namoyon bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, Markaziy Osiyoda vujudga kelgan mustaqil musulmon sulolalari boshqaruv tizimini arab xalifaligidan o'zlashtirgan bo'lsalar-da, u milliy an'analarga asosida rivojlangan.

Somoniylar abbosiylar kabi sunniylik mazhabini mahkam tutganlar va unga xizmat qilganlar. Xutbani abbosiylar nomiga o'qitib, pullarini ham ularning nomi bilan zarb qildirganlar. O'z navbatida, abbosiylar ham somoniylarni qadrlab, o'zlariga yaqin tutganlar. Somoniylar abbosiylarga Safforiylar^[1] va Zaydiylar^[2] kabi ularga qarshi chiqqan davlatlarni mahv etishga yordam berganlar. Ayniqsa, Ismoil Somoniyning Xurosonni egallashi va o'z davlatiga qo'shib olishi, shia oqimidagi Safforiylar davlatining tugatilishida muhim rol o'ynadi[12:187].

Xuroson boshqaruvi safforiylar qo'lidan ketgach, Somoniylar xalifalikning “Devon al-Mashriq” deb ataluvchi sharqiy viloyatlaridan biri bo'lgan Xurosonning voliylari sifatida amir unvoniga ega bo'lganlar. Bundan tashqari, boshqa viloyatlarning voliylari singari, “maulo amir al-mo'minin”, ya'ni “mo'minlar

amirining mavlosi” deb atalganlar[9:119]. Somoniylar shar’an Abbosiy xalifalarning Xurosondagi amirlari yoki voliylari, ya’ni boshqaruvchilari hisoblangan[4:123].

Narshaxiyga ko’ra, Somoniylarning Mansur ibn Nuhgacha (hukmronlik yillari 961-976) bo’lgan hukmdorlari amir, Mansur ibn Nuh va undan keyingilari malik, deb atalgan[2:163]. Ismoil ibn Ahmad (849-907 yy.) o’zini “Movarounnahr hukmdori” deb atagan. Narshaxiy Somoniy hukmdorlarga ta’rif berganda, ularning hokimiyatini “imorat” (amirlik) deb atagan va faqatgina Abdulmalik ibn Nuh hukmronligidan boshlab (343-350/954-961) “mulk” degan atama ishlatilgan. Boshqa manbalarga ko’ra, Abdulmalik ibn Nuh tangasida u “al-Amir al-Muayyid” yoki “al-Malik al-Muayyid” deb nomlangan. “Al-Muayyid” so’zi arab tilidan tarjima qilinganda, “qo’llab-quvvatlovchi, rahmli” degan ma’nolarni anglatadi[11:156].

Abbosiy larga sadoqat bilan xizmat qilgan amaldorlar va hukmdorlarni taqdirlash maqsadida xalifalar ularga “sulola do’sti”, “sulola tayanchi” kabi unvonlar berishgan. “Adud ad-davla”, “Toj al-milla”, “Baho ad-davla” va boshqalar shular jumlasidandir. “Adud ad-davla” deb atalgan obro’li unvon X asr ikkinchi yarmidan boshlab xalifalikning shimolda Somoniylardan tortib, sharqda Fotimiylar davlatigacha bo’lgan barcha yerlarida urfga kirgan edi[11:161].

Saroy odobi (etiketi) bo’yicha xalifaga murojaat qilishda unga bo’ysunuvchilarning barchasi unga “mavlono” – “bizning xo’jayin” yoki “amir al-mo’minin” – “mo’minlarning amiri” deb murojaat qilishi shart edi. Somoniy hukmdorlar arab xalifaligining bir qismi bo’lgan Xuroson noiblari sifatida “amir” unvonini olishgan. Boshqa sulola vakillaridan farqli o’laroq, ular o’zlarining kunyalari bilan xotirlangan. Masalan, Ismoil ibn Ahmad “amir al-adl” (adolatli amir) kunyasi bilan, Nasr ibn Ahmad “al-amir as-sa’id” (baxtli amir), Nuh ibn Nasr “al-amir al-hamid” (atoqli amir), Abdul Malik an-Nuh “al-amir-al-muayyad” (sodiq amir), Mansur ibn Nuh esa “al-amir as-sadid” (muvaffaqiyatli amir), Nuh ibn Mansur “al-amir ar-rizo” (rizolikka (yaxshilikka) moyil amir) va “al-amir ar-rashid”

(zukko amir) kunyalari bilan atalgan[11:156]. Ismoil Somoniy vafotidan so'ng "amiri moziy", ya'ni "dunyodan o'tgan amir" deb atalgan[2:159].

Somoniylar boshqaruv tizimida mamlakatning asosiy tayanchi – bu kuchli, markazlashgan qo'shin edi. Bu qo'shinning asosini jasorati, mardligi va qo'rqmasligi bilan manbalarda tilga olinadigan turkiy xalqlar tashkil etgan. Xalifa al-Mu'tasim (794-842 yy.) hukmronligidan boshlab (833-y.) turk g'ulomlari hatto xalifa shaxsiy gvardiyasining tayanchiga aylana boshlagan[1:20].

Somoniylar davrida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat, davlatning harbiy qudrati, qo'shini va uning askarlari haqida Ibn Havqal o'zining "Kitob surat al-ard" asarida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Ularning kuch-qudratiga kelsak, islom mamlakatlari ichida jehod urushlarini olib borishda ulardan o'tadigan o'lka yo'qdir. Chunki Movarounnahrning barcha chegaralari kofirlar mamlakatiga yaqin joylashgan. Ularning qo'shinlari barcha xalqlar ichida qat'iyati, shijoati, jur'ati va matonati bilan boshqa xalqlardan ustun turadi. Movarounnahrlik dehqonlar o'zlarining xizmatdagi xushfe'lligi, chiroyli kiyinishi, shohona ko'rinishi va itoatkorligi bilan xalifalarning lashkarboshilari, yaqinlari va sodiq xizmatkorlari bo'ldilar, hatto, xalifalarning eng xos odamlari va askarlariga aylandilar. Ulardan qo'shinlarga farg'onaliklar va turklar boshchilik qilib, xalifalarning eng ishonchli qo'riqchilari bo'ldilar. Ular orasida o'zining shijoati va jasorati bilan ustunlik qilgan turklar ustrushonalik Afshin^[3] va Ibn Abu-s-Soj, samarqandlik Ixshod va sug'dlik Marzubon ibn Turkash, sug'dlik Ujayf ibn Anbasa, Buxorxudot va boshqalar xalifalarning amirlari, qo'mondonlari va askarlari edilar" [9:20-21].

Turkiy xalqlar qo'shini boshqa ko'chmanchi davlatlar qo'shini kabi urug' tizimi bo'yicha emas, balki harbiy-ma'muriy birliklarga (minglik, yuzlik, o'nlik) bo'lingan. Turkiylar katta yurishlarda ishtirok etib, ko'pincha, o'z yurtidan olisda bo'lishgan. Shuning uchun turklarning alohida urug'lari Qrimdan Oltoygacha va Sibirdan Erongacha bo'lgan hududlarga bo'linib ketgan. Bu esa qadimdan ushbu hududlarda yashab kelgan turkiyzabon qabilalarning qarindosh ekanligini anglatadi. Shuning uchun islomning ilk asrida Markaziy Osiyoning turkiyzabon aholisi barcha

turklarni qardosh xalqlar deb bilib, arab va forslarni esa begonalar deb hisoblashgan[11:138].

IX-X asr boshlarida Somoniylar Abbosiylarning islom dinini Markaziy Osiyoning mahalliy aholisiga singdirish siyosatini amalga oshirib, Sirdaryoning yuqori oqimi, Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi gʻayridin turklarga qarshi gʻazovot urushlarini faol olib borganlar[4:73].

Xalifalardan birinchi boʻlib Abbosiy xalifa Mansur (hukmronlik yillari 754-774) Markaziy Osiyolik bir necha aslzodalarni Bagʻdodga taklif qilgan va yuqori harbiy lavozimlarga tayinlagan. Ular orasida Afshin islom qoʻshinlariga boshchilik qilib, Ozarbayjondagi mazdakiy Bobak boshchiligida arablarga qarshi xurramiylar qoʻzgʻolonini bostirishga muvaffaq boʻlgan[9:229].

Turk xoqonligida boʻlgani kabi, Somoniylar davlatida ham qoʻshin tarkibida chokarlarning salmogʻi yuqori edi. Chokarlar xojasiga sadoqatli boʻlib, ular uchun jonlarini berishga tayyor boʻlganlar. Qutayba ibn Muslimning turkiy va sugʻdiy aslzodalardan iborat 10 minglik qoʻshini boʻlib, ular kamondan oʻq otishga mohir boʻlgan. Ular Qutaybaga umrining oxirigacha sadoqat bilan xizmat qilib, hatto oʻzining oilasi undan yuz oʻgʻirganda ham uni tark etmaganlar. Keyinchalik chokarlar tizimi arab xalifaligida ham keng tarqalib, mamluk gʻulomlar tizimi deb atala boshlangan. Abbosiy xalifalardan Maʼmun birinchi boʻlib chokarlarni oʻzining qoʻriqchilik xizmatiga olgan. Uning ukasi Muʼtasimning onasi turk boʻlgan, shu bois uning qoʻshini Sugʻd, Ustrushona, Fargʻona va Shoshdan olib kelingan chokarlardan iborat boʻlgan. Somoniylar davlati harbiy kuchlarining asosiy qismini turkiylar tashkil etgan.

Ismoil Somoniy birinchi boʻlib turk gʻulomlari, dehqonlar va yollanma askarlardan tashkil topgan muntazam qoʻshin tuzgan[9:113]. Uning hukmronligi davrida Buxoro shahrini turkiylar hujumidan mudofaa qilish maqsadida qurilgan va muntazam ravishda taʼmirlab turiladigan, juda katta sarf-xarajat talab qiladigan “Kampirak devori”^[4]ni aholini mashaqqatga qoʻyib qayta-qayta taʼmirlash ishlari tugatildi. Amir Ismoil «to men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men boʻlaman» degan va janglarda doimo oʻzi qatnashgan[2:112]. Markaziy boshqaruvni

mustahkamlash va kuchli qo'shin tashkil etish Ismoilga qal'a bunyod etish va ko'chmanchilarga qarshi devorlarni mustahkamlashdan voz kechish imkonini berdi[10:91].

Somoniylar davrida islom dinining yoyilishi yo'lida ko'ngilli ravishda qo'shin safiga qo'shib jang qiluvchi g'oziyalar ham bo'lgan. Xususan, IX asrda Shosh va Farg'onaning chegara yerlaridagi rabotlarda g'oziyalarning qo'shinlari joylashgan bo'lib, ular turli mamlakatlardan ko'ngilli ravishda to'xtovsiz kelib turgan musulmonlardan tarkib topgan. Samarqand ham g'oziyalar to'planadigan markaz bo'lib, ular shahar atroflaridagi rabotlarda joylashgan. Bu qo'shinlardagi askarlar soni 40 mingga yetgan va ularga ulamolar rahnamolik qilgan. Somoniy hukmdorlar ular bilan yaqin munosabatda bo'lganlar va ularga homiylik qilganlar. Halok bo'lgan g'oziyalarning janozasi, ko'pincha, amirning o'zi tomonidan o'qilgan[4:73].

Somoniylar hukmronligi davrida turkiylarning obro'si Xuroson va Movarounnahrda juda ko'tarilib ketdi. IX asrda ular Somoniylar markaziy ma'muriy boshqaruv tizimidagi amaldorlarning katta qismini tashkil qilgan. Viloyatlarda ham shunday bo'lgan. Somoniylar tomonidan lavozimga tayinlangan viloyat hokimlarining katta qismi ulardan bo'lgan. Viloyat mudofaasi va qonunlar ustuvorligini ham turklar nazorat qilgan. Somoniylar qo'shinining bir qismini ko'chmanchi turklar, boshqa bir qismini esa ozod turklar, ya'ni o'troq turmush tarzini kechiruvchi turklar tashkil etgan[11:132].

Aytilganidek, Somoniylardan birinchi bo'lib Ismoil ibn Ahmad o'ziga bo'ysunuvchi sodiq qullar – mamluk-g'ulomlaridan tashkil topgan muntazam qo'shin tuzadi. Ungacha bo'lgan qo'shinlar dehqonlar va ruhoniylarga bo'ysungan. Harbiy xizmat uchun tanlab olingan mamluk-g'ulomlarining mavqei baland bo'lib, oddiy xizmatkorlar va oddiy fuqarolardan farq qilgan. Ular yaxshi kiyingan, qurollangan va oliy hukmdor huzuriga bemalol kira oladigan ishonchli odamlar hisoblangan. Katta lavozimlarni egallab, hukmdorlarga xos hashamatli hayot kechirgan[9:127].

280/893-yilda Ismoil Somoniy Sirdaryo ortidagi cho‘llarda yashovchi qarluqlarga qarshi hujum uyushtirib, ularning poytaxti Talasni egallaydi. Bu bilan Markaziy Osiyo orqali o‘tadigan karvon yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatish barobarida mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydilar[6:80].

Somoniylar davlatida shahardagi tartibni saqlash bilan “shihnat al-buldon”, ya’ni “shahar mirshablari” lavozimi ham bo‘lgan. Ular ham mamluk g‘ulomlari kabi o‘ta sadoqat bilan xizmat qilganlar. Bu haqda Ibn Havqal quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Ular yaxshi olib borilgan siyosatning to‘g‘ri boshqaruvidan oziqlanadilar, hokimiyat ular safardalik paytida oilalari haqida g‘amxo‘rlik qiladi. Agar u xayrli ish qilsa, uning bu yaxshiligi yo‘qolib ketmaydi. Agar u jinoyat sodir etsa, qilgan gunohi va jinoyati uchun jazosini oladi. Agar biror qarindosh yoki yaqin odamga qasos yoki xun olish zarurati bo‘lsa, bu ish Allohning marhamatiga topshiriladi. Agar begona odamga hukm yoki biror narsa undirish kerak bo‘lsa, u bilan Alloh taoloning ko‘rsatmalaridan qaytmagan holda ish ko‘riladi” [9:26]. Ko‘rinib turibdiki, Somoniylar davlatidagi boshqaruv islom shariatiga asoslangan ijtimoiy adolat, qo‘l ostidagilarga g‘amxo‘rlik ruhida amalga oshirilgan. Sud-huquq tizimi ham shu asosda tashkil etilgan.

Somoniylar boshqaruv tizimi Abbosiylardan o‘zlashtirilgan bo‘lib, o‘z navbatida, Abbosiylar boshqaruvi Sosoniylar imperiyasidan qolgan an’analar asosida shakllangan edi. Ismoil Somoniy birinchilardan bo‘lib Movarounnahrda markazlashgan boshqaruv tizimini joriy etishga muvaffaq bo‘ldi. Bu tizim asosini oliy hukmdor dargohi (saroyi) va devonlar (vazirliklar) majmui tashkil etgan[5:94]. So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, Somoniylar davlatining huquqiy asoslari islom shariatiga asoslangan bo‘lib, arablar tomonidan bo‘ysundirilgan boshqa xalqlar ham xalifalikning davlat qurilishida ishtirok etishgan. Ularning islomdan avvalgi urf-odatlar davlat boshqaruvida keng qo‘llangan. Arab xalifaligining harbiy va davlat boshqaruvida tayanadigan asosiy kuchi xurosonliklar, ularning asosiy qismi Markaziy Osiyo turklaridan bo‘lgan. Islomning dastlabki asrlarida “Qobusnoma”, “Kalila va Dimna” kabi asarlarning arab tiliga tarjima qilinishi asosida davlat

boshqaruvi asoslarini o'z ichiga olgan "Siyosatnoma" janridagi dastlabki asarlar yozilgan.

Somoniylardan birinchi bo'lib Nasr ibn Ahmad (864-875 yy. – Samarqand amiri, 875-892 yy. – Movarounnahr amiri) 875-yilda xalifa Mu'tamiddan (844-892 yy.) Movarounnahrni boshqarish huquqini beruvchi yorliq olgan. 892-yili Nasr vafotidan keyin uning ukasi Ismoil ibn Ahmad butun Movarounnahr hukmdori bo'ldi va oradan bir yil o'tgach, 893-yil xalifa Mu'taziddan (xalifalik yillari 892-902 yy.) yorliq oladi. Somoniylar xalifaga sovg'a-salomlar yuborib turishgan, lekin mamlakatdan yig'ilgan barcha soliqlarni o'zlarida saqlab qolishgan[1:22].

Sh.Kamoliddinning fikricha, "Somoniylarning boshqaruv tizimi o'sha davrning barcha aniq va mukammal tizimlarini o'zida birlashtirgan. Biroq davlatchilik huquqiy atama bo'lgani bois uning sifati ham huquqiy normalarga asoslangan bo'lishi kerak. Qonunchilik nuqtayi nazaridan, bizningcha, Somoniylarning boshqaruv tizimi va boshqaruvi ham mustaqil davlat sifatida ko'rilishi mumkin emas. O'rta asr islom jamiyatida birinchi o'rinda doim din, so'ng davlat va keyin madaniyat turgan. Islomda davlat asosini Qur'oni karim, hadisi sharif va ulamolarning fatvolariga asoslangan shariat qonunlari tashkil etadi. Din va hukumat islomda ajralmas hisoblanadi. Xalifalikka qarashli viloyatlarni boshqaruvchi mahalliy sulolalardan chiqqan barcha amirlar, xususan, Somoniylar ham rasman mustaqil bo'lsalar-da, baribir, Bag'dod xalifalarining oliy hokimiyatini tan olishgan. Qonun bo'yicha huquqiy normalar shariat tomonidan belgilangan. Shuning uchun Buvayhiylar, Somoniylar, G'aznaviylar va Qoraxoniylar hukmdorlar o'zlarini "maulo amirul mo'minin" yoki "voliy amir al-mo'minin" deb vasf etishgan" [11:139].

Somoniylar davrida Movarounnahrda islomdan oldingi ayrim qonun-qoidalar va tartiblarga ham rioya qilingan. Somoniylar islom diniga va arab xalifalariga sodiq bo'lsalar-da, ba'zi o'rinlarda otabobolarining dini va urf-odatlarini ham hurmat qilishgan. Jumladan, Somoniylarning Buxorodagi oilaviy maqbarasining devorlarida, shuningdek, ular zarb ettirgan ayrim tangalarda buddaviylik va moniylikka oid ramzlar tasvirlangan. Mansur I ibn Nuh (hukmronlik yillari 961-976)

tomonidan 968-yilda Buxoroda zarb etilgan kumush dirham shaklidagi medalyonning old tarafida o'ng tomonga qarab turgan hukmdorning surati, uning ikki tarafida pahlaviy yozuvlar tushirilgan[9:127].

IX asrda Somoniylar davlat boshqaruv tizimida yetakchilik arablar va forslarga tegishli bo'lib, turklarning o'zni uncha sezilmagan bo'lsa, X asr boshlaridan turklar davlatdagi barcha muhim vazifalarni egallashga muvaffaq bo'lishgan. Buning uchun turklar arab tilini chuqur o'rgangan. IX asrning birinchi yarmida, keng omma orasida islom dini chuqur ildiz otib bo'lgan edi. Jumladan, boshqaruvga oid ishlar ham asosan arab tilida amalga oshirilgan. Lekin IX asrning o'rtalaridan boshlab, somoniylar davlatining izchil siyosati tufayli fors tili davlat tiliga aylandi. Arab tili esa, fan tili sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoldi.

Somoniylar boshqaruv tizimida asosan mahalliy dehqonlar, mulkdorlar va din arboblari xizmat qilar edilar. Buning uchun ular arab va fors tillarini bilishi, shuningdek, diniy va dunyoviy bilimlarga ega bo'lishi kerak edi. Bunday ilmlarga ega bo'lgan odamlar “ahl al-qalam” (ya'ni, qalam ahli) deb atalgan[10:6].

Somoniylar davlatidagi markaziy boshqaruv asosan o'nta devondan^[5] iborat bo'lgan. Narshaxiy bu devonlarning nomini o'zining “Buxoro tarixi” asarida keltirib o'tadi. Nasr II hukmronligi davrida (914 – 943) Registon maydonida ular uchun alohida bino va mahkama quriladi. Viloyatlarda ham asosan o'nta devon bo'lib, ular mahalliy hokimga yoki vazirga bo'ysungan. Shahar boshqaruvi raisning qo'lida bo'lgan va u hukmdor tomonidan lavozimga tayinlangan. Ulamlarning ta'siri mamlakat hayotida kuchli bo'lgan. Ularning yetakchisi – ustod, keyinchalik – shayxul-islom, deb atalgan.

Xuroson sarkardasi “sipohsolar” bo'lgan va davlat boshqaruv ishlariga o'zining katta ta'sirini o'tkazib turgan. Dargoh hamda boshqa qator muhim davlat idoralarining xavfsizligini amalga oshirish xizmatini bosh hojib va uning xodimlari olib borgan.

“Buxoro tarixi”da keltirilishicha, Buxoro Hisorining g'arbiy darvozasidan to Ma'bad darvozasigacha bo'lgan masofa Registon deb atalgan. Ismoil Somoniy Registonda bir saroy qurishni buyurgan. Shu saroy darvozasi oldida amaldorlari

uchun bino bunyod ettirgan. Har bir amaldorning podshoh saroyi darvozasi oldida qurilgan o'z makonida alohida devoni bo'lgan[2:106]. Vazir devoniga qo'shimcha ravishda yana o'nta devon mavjud bo'lib, ularning har biri alohida binoda joylashgan va ma'lum bir vazifani bajargan.

Somoniylar davlati ijroiya hokimiyatining asosiy vazifalariga quyidagilar kirgan:

Vazir devoni yoki xo'jai buzrug – ijro hokimiyatining barcha tarmoqlarini boshqargan va boshqa devonlar unga bo'ysungan. Ayni paytda u harbiy vazir vazifasini ham bajargan va barcha qo'shinlar bosh qo'mondoni hisoblangan. Bosh vazirlik lavozimiga jayhoniylar^[6], bal'amiylar^[7], utbiylar^[8] sulolalari orasidan chiqqan shaxslargina tayinlangan.

Devoni mustavfiy – moliya vazirligi vazifasini bajargan. Moliya vaziri davlatning kirim-chiqimlari hisobini olib borgan. Mustavfiyning qo'li ostida xazinador xizmat qilgan. Davlatning moliya ishlarini tizimga solib turgan.

Devoni amid (Devoni rasoil yoki devoni insho) – maxsus markaziy vazirlik bo'lib, rasmiy hujjatlar bilan shug'ullangan. U orqali davlatning barcha muhim hujjatlari o'tgan. Bundan tashqari, ushbu devon boshqa mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlarni olib borgan. Nafaqat Somoniylarda, balki G'aznaviylarda ham “devon ar-rasoil” davlatning siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan.

Devoni sohibi shurat – Somoniylar gvardiyasini boshqargan. Ushbu devon qo'shinning tayyorgarligi, tartib-intizomi, oziq-ovqati, xo'jalik ta'minoti va maosh masalalari bilan shug'ullangan. Davlat xizmatchilariga maosh bir yilda to'rt marta – har uch oyda to'lab borilgan.

Devoni barid (pochta xizmati) – Somoniylar davrida davlat ehtiyojlari uchun xizmat qiluvchi vazirlik bo'lgan. Pochta xizmati boshlig'i – sohibi barid ixtiyorida alohida shaharlarda pochta amaldorlari, o'zlarining xizmatchilari otlari bilan xizmatda bo'lishgan. Pochta amaldorlari alohida viloyatlardagi mahalliy hokimlarga emas, faqat markaziy boshqaruv organiga bo'ysunishgan.

Devoni muhtasib – muhtasibning asosiy vazifasi bozorlardagi tosh-tarozu va og'irlik o'lchovlarini nazorat qilish bo'lgan. Bundan tashqari, muhtasib va uning

yordamchilari shaharlarda usta-hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar miqdorining aniq bo'lishini ham nazorat qilishgan. Muhtasib yaxshi sifatga ega bo'lmagan mahsulotlarni bozorga chiqishidan to'sish, go'sht, non va shu kabi iste'molda muhim o'rin tutgan mahsulotlar narxining oshib ketishini taqiqlash huquqiga ham ega bo'lgan.

Devoni mushrif – davlat xarajatlari ustidan umumiy nazoratni o'rnatgan amaldor mushrif, deb atalgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, feodal jamiyat sharoitida davlat xazinasini hukmdor xazinasidan ajratish, umuman olganda, saroy amaldorlariga davlat xazinasidan mablag' ajratilishini nazorat qilish mushrif ixtiyorida bo'lgan. Bunday mas'uliyatli vazifaga ko'pchilikning e'tiborini qozongan, hammaga birdek adolatda turadigan kishilar tayinlangan.

Devoni qozi – bosh qozi tomonidan boshqariladigan devon asosan huquqiy masalalar bilan shug'ullangan.

Devoni ziyo – madrasadagi o'qish jarayonlarini nazorat qiluvchi devonlik bo'lgan.

Devoni mulk – davlat yerlari, mulklari va xazinaga keluvchi foydaning ustidan nazorat qiluvchi va uni boshqaruvchi vazirlik bo'lgan. Bunday yerlar juda katta hududlarni o'z ichiga olgan bo'lib, ularda dehqonlar jamoa bo'lib yashashgan.

Devoni vaqf – musulmon muassasalariga hadya qilinadigan mulklarning kirim-chiqimlarini nazorat qiluvchi vazirlik. Vaqf yerlari – musulmon muassasalariga vaqtinchalik yoki umrbod foydalanish uchun beriladigan yerlar.

Devoni ariz (devoni harb) – ariz Somoniylar qo'shiniga beriladigan maoshni nazorat qiluvchi vazirlik bo'lgan. Bunday maosh bir yilda to'rt marta, har uch oyda bir berilgan. Bundan tashqari, bu vazirlik harbiy intizom, qo'shin ta'minoti va qurol-yarog'larning sozligiga ham javobgar bo'lgan.

Zikr etilgan devonlarning hududlarda ham vakilliklari bo'lib, ular markazdagi devonlardan tashqari, mahalliy hokimlarga ham bo'ysungan holda mahalliy idoralar bilan hamkorlikda faoliyat olib borgan. Bundan xat-xabarlar xizmati devoni mustasno bo'lib, ularning mahalliy bo'limlari ham faqat markazga hisobot bergan. Ular mahalliy hokimlar, mansabdorlar ustidan ham pinhona nazorat olib borganlar.

Somoniylar davlatida davlat xizmatchilariga beriladigan maosh aholidan yig'ib olinadigan xiroj solig'idan to'langan. Ibn Havqal ma'lumotiga ko'ra, "Somoniylar davlatida aholidan olinadigan soliqlar va xirojlar miqdori kam, g'aznalarida pul ko'p bo'lmagan. Xuroson va Movarounnahrning Abu Solih Nuh ibn Mansurga beradigan solig'i bir yilda ikki marta, har olti oyda yigirma ming dirhamdan yig'ilar edi. Agar sharoit xirojning ikki hissa olinishini taqozo etsa, u qirq ming dirhamni tashkil etgan. Davlat xizmatchilariga maosh bir yilda to'rt marta muntazam va kechiktirmay berilishiga guvoh bo'ldim. Har safar nafaqa har to'qson kunning boshida, eng avval g'ulomlarga, saroy xodimlariga va harbiy qo'mondonlarga, so'ng boshqa xizmatchilarga beriladi. Har safar tarqatiladigan nafaqaning yig'indisi besh ming dirhamni tashkil etadi, to'rt marta tarqatiladigan nafaqalar yig'indisi, bir marta yig'iladigan xirojga teng bo'ladi. Odamlar soliqni ochiq ko'ngil va xursandchilik bilan, o'zlariga nisbatan adolatli munosabatdan to'la mamnun holda to'laydilar. Bunga raiyatga nisbatan adolat, oddiy xalqqa nisbatan haqqoniylik va hokimlar qo'lidagi katta mas'uliyat sabablidir. Viloyatlarda qozilar, tekshiruvchilar, nazoratchilar va boshqaruvchilar ko'p bo'lib, ularning maoshlari bir-biriga teng, majburiyatlari ham deyarli bir xildir" [9:22-23].

Aytish joizki, maoshlarning to'lanishi muddatlariga og'ishmay rioya qilingan, aks holda katta noroziliklar kelib chiqqan va ular xunrezlikkacha yetib borgan. Masalan, Nuh ibn Nasrning vaziri Abu-l-Fazl 946-yili maoshi vaqtdan kechiktirilgan askarlar tomonidan qatl qilingan[2:166].

Maoshi tayinlangan harbiylardan iborat muntazam qo'shından tashqari mahalliy yer egalaridan tashkil topgan g'oziylar qo'shini ham bo'lgan. Hukumat tomonidan ularga iqto mulki sifatida yer ajratilgan bo'lib, undan kelgan daromad ularning barcha xarajatlari, shu jumladan oilalarini boqish, qurol-yarog'lari va otulovlariga ketadigan xarajatlarni qoplash uchun ishlatilgan. Shuningdek, bu daromad hisobidan ular savdo bilan ham shug'ullanganlar, kambag'allarga xayrehsonlar qilganlar. Buning evaziga hukumat chaqirig'iga binoan o'zlarining harbiy asbob-uskunalari va qurol-yarog'lari bilan rabotlarga to'planib, dushmanlarga qarshi jang olib borganlar[4:73].

Somoniylar arab xalifaligi soliq tizimini ham o'zlashtirganlar. "Gezit" (jon solig'i) va "xarag" (yer solig'i) kabi atamalar arab tilidagi jizya va xiroj bilan sinonim hisoblangan. Yerga egalik qilishda asosan iqto tizimidan foydalanilgan[11:128].

Davlat yerlaridan olinadigan asosiy soliq xiroj bo'lib, soliqning ushbu turi Markaziy Osiyoda XIX asr oxirigacha amalda bo'lib kelgan. Bu soliq arab xalifaligidan o'zlashtirilgan bo'lib, arablar fath etilgan mamlakatlar aholisidan olinadigan har qanday soliqlarni shunday nomlaganlar. Olinadigan xirojning miqdori hosilning $\frac{1}{3}$ qismini tashkil etgan, ba'zan esa $\frac{2}{5}$ qismigacha qisqartirilgan. Xiroj mol bilan ham, pul bilan ham olingan. Mol bilan olinadigan xiroj hosil terimi vaqtida, pul bilan olinadigan xiroj esa har uch oyda, ba'zan esa har oyda olingan[9:122].

Ilk islom davrida arablar Markaziy Osiyodagi katta-kichik shahar va viloyatlarning mahalliy hukmdorlarini ham "dehqon" deb ataganlar. Ularning ba'zilar ancha qudratli bo'lib, hatto podshohni ham mehmonga chaqirishlari mumkin bo'lgan. Somoniylar davrida dehqonlarning mavqei va maqomi biroz pasaygan bo'lsa ham, ular hamon Markaziy Osiyoning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rinda bo'lib qolavergan[4:148].

Somoniylar markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida Markaziy Osiyodagi dehqonlar, ya'ni katta yer egalarga qarshi qattiq siyosat olib borib, hatto ularning ko'shk va qal'alarini buzdirib tashlashgan. Natijada somoniylarga qarshi viloyatlar aholisi tomonidan tez-tez qo'zg'olonlar bo'lib turgan. Somoniylar hukmronligi davrida dehqon instituti halokatga uchragan bo'lsa-da, lekin, baribir, dehqonlarning siyosiy va iqtisodiy hayotdagi roli hali anchagina sezilarli edi.

Somoniylar sulolasi arab bo'lmagan birinchi musulmon sulolasi bo'lib, yuz yildan oshiq hukmronlik qilgan va hokimiyat otadan bolaga meros qoldirilgan. Somoniylar islom dinining yoyilishida ham faol ishtirok etganlar. Mazkur sulola hukmronligi davrida (IX-X asrlar) islom dini Sirdaryo sohillariga va uning shimolidagi viloyatlar– Yettisuv va Sharqiy Turkistongacha tarqaladi. IX asrning birinchi yarmida Toshkent vohasi aholisi ham islom dinini qabul qiladi [13:272]

Somoniylar Movarounnahrda ilk mahalliy musulmon sulola bo'lib, tashqi siyosatda xalifaga bo'ysungan holda ichki boshqaruvda to'liq mustaqil bo'lgan. Somoniy hukmdorlarning o'z nomlaridan tanga zarb qildirgani hamda juma xutbasida xalifaning nomidan keyin o'zlarini zikr ettirgani buning isbotlaridir.

– Somoniylar va ulardan keyingi mustaqil turk-musulmon sulolalari uzoq davr tarqoq holda rivojlangan Markaziy Osiyo mintaqasini markazlashgan yaxlit davlatga aylantirdi. Movarounnahrda markazlashgan boshqaruvning qaror topishi natijasida ichki nizolar qirgilib, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik, bog'dorchilik rivojlandi, turmush farovonligi oshdi.

– Eng yirik ikki turkiy qabila – qarluqlar va o'g'uzlar somoniylar sa'y-harakatlari evaziga islomni qabul qildi; Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Usmoniylar, Tuluniylar kabi islom ta'limotidan oziqlangan kuchli boshqaruvga ega markazlashgan musulmon davlatlariga asos solishdi, shuningdek, keyingi davrlar davlat boshqaruvi uchun andoza sifatida xizmat qildi.

– Somoniylar tomonidan birinchi bo'lib tashkil etilgan turk va sug'd chokarlaridan iborat muntazam qo'shin turi keyinchalik arab xalifaligida ham keng tarqalib, tarixga *mamluk g'ulomlari tizimi* degan nom bilan kirdi. Uning hayotiy kuchini ta'minlagan omillardan biri islom ta'limotiga asoslangan markazlashga boshqaruv bo'ldi.

Xulosa. Islom dinining kirib kelishi Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida tub burilish yasadi va Somoniylar sulolasi davrida markazlashgan mukammal tizimning shakllanishiga zamin yaratdi. Somoniylar arab xalifaligi boshqaruv uslublarini mahalliy an'analar bilan uyg'unlashtirib, o'nta devondan (vazirlikdan) iborat kuchli ma'muriy apparat hamda shariat ahkomlariga tayanuvchi sud-huquq tizimini joriy etdilar. Davlatning iqtisodiy barqarorligi va barhayotligini ta'minlashda turkiy g'ulomlar va chokarlardan tashkil topgan, maoshli muntazam qo'shin asosiy tayanch vazifasini o'tadi. Garchi Somoniylar Bag'dod xalifaligining oliy huquqiy hokimiyatini rasman tan olgan bo'lsalar-da, amalda ichki va iqtisodiy siyosatda mutloq mustaqil edilar. Ular nafaqat mintaqani yaxlit davlat ostiga birlashtirdilar, balki qo'shni turkiy qabilalarning islomni qabul qilishiga va yangi musulmon

davlatlarining shakllanishiga turtki berdilar. Aynan Somoniylar asos solgan ma'muriy va harbiy boshqaruv andozasi keyingi davrlarda hukm surgan Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar kabi sulolalar uchun etalon bo'lib xizmat qildi va o'zbek davlatchiligi taraqqiyotining asosi bo'lib qoldi. Yakuniy so'z o'rnida ta'kidlash joizki, Somoniylar Markaziy Osiyoda islom dini ko'rsatmalari asosidagi boshqaruv tizimining qaror topishida o'ziga xos o'rin tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Yuriy Bregel. An historical atlas of Central Asia. – Boston: Brill, Leiden, 2003. – 109 p.
- 2.Abu Bakr Muhammad ibn Jafar an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T.: Kamalak, 1991. – B.335.
- 3.Abu Said Gardizi. Zayn al-Axbar / Per. A. Arends. – T.: Fan, 1991. – S.176.
- 4.Abul Abbas Ahmad ibn Yahyo al-Balozuriy. Futuh al-buldon. Xurosonning fath etilishi / So'z boshi, arab tilidan tarjima, sharhlar, izohlar va ko'rsatkichlar muallifi Sh.S.Kamoliddin. – T.: ToshDSHI, 2017. – B.439.
- 5.Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) // Mas'ul muharrir: B.Ahmedov/. – T.: Sharq, 2001. – B.368.
- 6.Bosvort K.E. Musulmon sulolalari. – T.: Fan, 2007. – B.269.
- 7.Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. – T.: Universitet, 2008. – B.202.
- 8.Ibn al-Asir. Al-kamil fit-tarix. Perevod s arabskogo yazyka, primechaniya i kommentarii S.P.Bulgakov. Dopolneniya k perevodu, primechaniyam i kommentariyam, vvedeniye i ukazateli Sh.S.Kamoliddina. – T.: Uzbekistan, 2006. – S.560.
- 9.Ibn Havqal. Movarounnahr / Ibn Havqal; arab tilidan tarj., izohlar muallifi Sh.S. Kamoliddin.T.J
- 10.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – B.398.
- 11.O'zbekiston xalqlari tarixi. I jild. Mualliflar jamoasi / Mas'ul muharrir. A.Asqarov. – T.: Fan, 1992. – B.188.
- 12.Sh.Kamoliddin. Samanidylar: iz istorii gosudarstvennosti Uzbekistana v IX – X vv. – T.: 2019. – S.191.

13. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. 2-juz – T.: Hilol-Nashr, 2018. – B.544.
14. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T.: Sharq, 2001. – B.462.